



The linguistic and cultural significance of the use of euphemisms in German and Uzbek

Amriddin SHOIMOV¹

Samarkand State Institute of Foreign Languages

ARTICLE INFO

Article history:

Received October 2024

Received in revised form

10 November 2024

Accepted 25 November 2024

Available online

25 December 2024

Keywords:

euphemisms,
linguacultural research,
comparative analysis,
customs and differences,
euphemistic comparison.

ABSTRACT

This article is dedicated to the linguistic and cultural significance of the use of euphemisms in the German and Uzbek languages. In modern linguistics, the linguistic and cultural aspects of language elements are being extensively studied. Particularly, intercultural research holds significant importance in the process of comparing the elements of two languages. Therefore, in this article, we have sought to highlight the use of euphemisms in German and Uzbek languages during speech, considering the culture, traditions, and lifestyle of these nations, and to explore their role in communication. The German and Uzbek peoples differ not only geographically but also in historical and cultural aspects. However, in the use of euphemisms, the two nations generally adopt similar approaches. The main objective of the article is to uncover the euphemisms used by Germans and Uzbeks in communication and their cultural characteristics. While in social contexts, the two nations might resort to euphemisms in different situations, their use of euphemisms in political matters is quite similar. The most crucial aspect of the issue lies in understanding the cultural characteristics of the two nations and accurately comprehending how euphemisms should be used in communication with them.

2181-3701/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol2-iss6/S-pp193-201>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

¹ Teacher, Samarkand State Institute of Foreign Languages. E-mail: amriddinshoimov@gmail.com

Nemis va o'zbek tillaridagi evfemizmlar qo'llanishining lisoniy-madaniy ahamiyati

Kalit so'zlar:

Evfemizmlar,
lisoniy-madaniy tadqiqot,
qiyosiy tahlil,
urf-odatlar va tafovudlar,
evfemali taqqoslash.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola nemis va o'zbek tillaridagi evfemizmlar qo'llanishining lisoniy-madaniy ahamiyatiga bag'ishlangan. Zamonaviy tilshunoslikda til unsurlarining lisoniy-madaniy jihatlari keng ko'lamda o'rganilmoqda. Ayniqsa, ikki tildagi unsurlarni bir-biri bilan qiyoslab o'rganish jarayonida madaniyatlararo tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu sababli biz ushbu maqolada nemis va o'zbek tillaridagi evfemizmlarning nutq jarayonida aynan xalqlar madaniyati, urf-odatlari hamda turmush-tarzini inobatga olgan holda evfemizmlarning qo'llanishiga va ularning nutqda tutgan ahamiyatini yoritib berishga harakat qilganmiz. Nemis va o'zbek xalqlari nafaqat geografik, balki tarixiy – madaniy jihatlardan ham bir-biridan farq qiladi. Evfemizmlar qo'llanilishida esa ikki xalq asosan bir xil yondashuvga ega. Maqolaning asosiy maqsadi esa, nemislar va o'zbeklarning muloqotda qo'llaydigan evfemizmlari va ularning madaniy jihatlari ochib berishdan iborat. Agar ijtimoiy sohalarda ikki xalq turlicha holatlarda evfemizmlarga murojaat qilishsa, siyosiy masalalarda ularning evfemizmlar qo'llash holatlari bir-biriga yaqin. Masalaning eng muhim jihati shundaki, ikki xalq madaniy xususiyatlarini anglash va ular bilan muloqotda evfemizmlardan qanday foydalanish kerakligini to'g'ri tushunish hisoblanadi.

Лингвистическое и культурное значение использования эвфемизмов в немецком и узбекском языках

Ключевые слова:

эвфемизмы,
лингвокультурологическое
исследование,
сравнительный анализ,
обычаи и различия,
эвфемистическое
сравнение.

АННОТАЦИЯ

Данная статья посвящена лингвистическому и культурному значению эвфемизмов в немецком и узбекском языках. В современной лингвистике активно изучаются языковые элементы с точки зрения их лингвистических и культурных особенностей. Особенно актуальны межкультурные исследования, направленные на сравнение элементов разных языков. В этой работе рассматривается использование эвфемизмов в немецкой и узбекской речи с учетом культуры, традиций и образа жизни этих народов, а также их роль в коммуникации. Немецкий и узбекский народы отличаются не только географическим положением, но и историческим и культурным контекстом. Однако в применении эвфемизмов можно наблюдать общие подходы. Основной целью статьи является выявление эвфемизмов, используемых в повседневной и официальной речи немцев и узбеков, а также анализ их культурных особенностей.

Несмотря на различия, в социальном контексте оба народа используют эвфемизмы в различных ситуациях. Примечательно, что в политической сфере подходы к их применению демонстрируют значительное сходство. Ключевым аспектом данной проблемы является понимание культурных особенностей двух народов и осознание того, как использовать эвфемизмы в общении с представителями этих культур.

KIRISH

Malumki, steriotiplar bir qavmga va hattoki bir millatga tegishli hisoblanadigan xulq-atvorlarning o'lchami, u haqidagi tasavvurlar hisoblanadi. Har bir xalqning o'ziga xos xususiyati va hattoki bir xalq ichida mavjud etnik guruhlar mahalliy aholining o'ziga xos madaniyati mavjud bo'lishi hammaga ma'lum. Bunday o'lchamlar etnik kelib chiqishga bog'liq bo'lib, xalqlararo turlicha shakllanadi hamda o'ziga xoslikni aks ettiradi [Krisin, 2003: 458].

Shunday ekan, ikki xalqning madaniy hayotini solishtirish, ayniqsa, evfemizmlarning lisoniy – madaniy xususiyatlarini taqqoslash hozirgi davr talabi hisoblanadi. Nemis va o'zbek tillari evfemizmlarining bir-biri bilan qiyoslash, ularning lisoniy – madaniy ahamiyatini tahlil qilish ushbu maqolaning asosiy maqsadi hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Tilshunos olimlar tillarni tadqiq etishni boshlagandan hozirgi kungacha evfemizmnining turli xususiyatlarini o'rganishga e'tibor qaratib kelmoqdalar. Evfemizmnining nutqda ilk qo'llanishi uzoq tarixga borib taqaladi [Zöllner, 1997: 17], ya'ni insoniyat o'zaro munosabatlarga kirishar ekan, evfemizim ham muloqot sharoitida avtomatik tarzda yuzaga keladi, chunki evfemizim nutqning ijobiy kechishiga xizmat qiluvchi unsur hisoblanadi.

O'zbek olimlari evfemizmlarni o'tgan asrning ikkinchi yarmidan boshlab chuqur o'rgana boshlagan bo'lsalar, bu holat nemis tilidagi tadqiqotlarda ertaroq amalga oshganligini ham ta'kidlash lozim. O'zbek olimlaridan Ismatullayev 1963-, Omonturdiyev 2006- hamda 2009-, Sattorova 2021-yillarda va boshqa ko'plab olimlar evfemizmnining turli qirralarini tadqiq qilgan bo'lsalar, nemis olimlaridan esa Luxtenberg 1975-, Bolen 1994-, Schröder 2016-yillarda va yana ko'p sonli olimlar ushbu til unsurini muhim jihatlarini tadqiqot obyekti sifatida tanlaganlar. Boshqa tilda tadqiqot olib boruvchi olimlar ham evfemizmlarni qiziqish bilan o'rgangan bo'lib, katta ilmiy natijalarga erishganlar. Bularga Berdova (1981), Burchfiyeld (1985), Rada (2002), Prudivus (2006) kabi olimlarni qo'shish mumkin. Olimlarning asosiy vazifasi evfemizmlarning qaysi til sathlarida, qanday nutq jarayonlarida va nima maqsadlarda qo'llanishini yoritib berishdan iborat bo'lib kelmoqda.

TADQIQOT NATIJALARI

Nemis xalqi haqida gapirganda ularning punktulalligi, mehnatsevarligi hamda texnika sohasida ilg'or ekanligini barcha xalqlar e'tirof etishadi. O'zbek xalqi ham mehnatkash, mehmondo'st.

Biz hozirda yashayotgan davlatlar murakkab tarkibli mamlakatlar hisoblanadi. Turli millat, etnos, din va diniy konfessiyalar, qarashlar va oqimlar mavjudligi O'zbekiston va Germaniyada etnik jihatdan marginalligi bilan belgilanadi. Bu esa kishilarning muloqot madaniyatiga muhim bo'lgan talablarni qo'yadi. Barcha xalqlar, jumladan nemis va o'zbek xalqlari ham kommunikatsiyaga kirishishda o'ta nozik etnomadaniy va etnopsixologik tamoyillarga hushyorlik bilan yondashishlari lozim bo'ladi [Rustamova, 2018: 9-10].

O'zbek muloqot madaniyatida so'rashish akti "Qandaysiz?" – "Yaxshi" paralleliga ega, nemis madaniyatida "Wie geht es?" "Danke, gut" birikmasi qo'llanadi. O'zbek mental muhitida restoran yoki choyxonada ovqatlanayotganda yoshi ulug' mehmonni o'rnidan turib qarshilash odati mavjud. Lekin yevropaliklar uchun bosh qimirlatib qo'yishning o'zi yetarli.

Evfemizmlarning lisoniy-madaniy xususiyatlarini tahlil qilishda muhim sanalgan ushbu masalaga oydinlik kiritish zarur hisoblanadi.

Umumiy madaniy evfemizmlar nominativ sohalari ikkala til madaniyatida ifodalangan evfemizmlar sifatida tushuniladi. **"O'lim", "o'limga olib keladigan kasalliklar", "Shaxsiy hayot", "Inson fiziologiyasi", "Kasalliklar, tashqi ko'rinishdagi nuqsonlar", "Qo'pol la'nat so'zlari"** kabi nominativ sohalarga tegishli umumiy madaniy evfemizmlar, ularni ifodalovchi til birliklari ko'rib chiqilayotgan til madaniyatlarining stereotipik umuminsoniy qadriyatlarini hamda ushbu tushunchalarga milliy o'ziga xos munosabatni to'plashi bilan tavsiflanadi.

"Maishiy muammolar", "Siyosiy muammolar va harbiy harakatlar", "Jinoyatlar va ularning oqibatlar", "Yomon odatlar" va "Ijtimoiy-iqtisodiy muammolar" nominativ sohalari bilan bog'liq madaniyatga xos evfemizmlar asosiy tushunchalarda mujassamlangan muayyan millatning xususiyatlari, shuningdek, jamiyat taraqqiyotining tarixiy va ijtimoiy-madaniy sharoitlari evfemistik lug'atning aqliy tomonidan shartlanganligini ko'rsatadi [Rebrova, 2020: 16].

O'zbek tilida "tog'a", "amaki", "amma" yoki "xola" kabi so'zlar orqali bir notanish inson ikkinchi bir insonga murojaat qilsa [Saydullayeva, 2023: 14], nemis tilida Schwester (opa, singil), bruder (aka, uka) va shu kabi otlar muloqot jarayonida hurmat ma'nosini anglatish maqsadida va nutqiy etiketning xushmuomalalik yuzasidan murojaat qilish shakli sifatida foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bu esa har ikkala tilning o'xshash tomonlari mavjud ekanligidan dalolatdir.

Nemis va o'zbek tillaridagi salomlashish madaniyatida o'xshash va farqli jihatlarni ko'rish mumkin. O'zbeklarning "Assalomu alaykum" so'zi islom diniga bog'liq so'z bo'lib, ayrim hollarda "salom" qisqartmasi ham uchraydi. Nemis tilida asosan "Hallo" so'zi orqali salomlashiladi. Bundan tashqari, eng ko'p uchraydigan salomlashish bu kun qismlari bilan bog'liq so'zlardir. Nemis tilidagi "Guten Morgen/Tag/Abend va gute Nacht" kabi salomlashishlar tilak bildirish maqsadini ham o'z ichiga oladi va o'zbek tilida ham ayrim hollarda "Xayrli tong/kun/kech/tun" so'zlari mavjud. Nemislarning asosiy qismi xristian e'tiqodida bo'lib kelayotganligini ko'rsatuvchi "Gruss Gott"-(seni Xudo so'rasin) so'zi ham ularning madaniy hayoti haqida ma'lumot beradi.

Ikkala tilda ham muloqot jarayonida bir-biriga hurmat ko'rsatish maqsadida Herr-Janob, Frau-Xonim so'zlarining qo'llanilishi ham dunyo xalqlarida o'xshash madaniy holatlar mavjudligini, ularning umumiylik jihatlari borligini ko'rsatadi. Agar nemislar Herr va Frau murojaatlarini shaxslarning familiyasi bilan ishlatishsa, o'zbeklar janob va xonim so'zlarini familiya va ko'pincha ismlar bilan qo'shib ishlatishadi.

„Guten Tag, **Herr** Rabe!“, rief der Fuchs. [Henn, 2011: 81]

„**Frau** von Trömmesen, welche Ehre!“ [Henn, 2011: 100]

Plastinkani shu qo'shiqni ijro qilgan Tamaraxonim opamizning o'zlari taqdim qiladilar. [S. Ahmad, 1976: 71]

Bilasizmi, janob Hakimov! Buning otini kamida KRA deydilar! [O'.Hoshimov, 2002: 34].

Muayyan bir xalq madaniyati, unda evfemizmlarning tutgan o'rne haqida turli tadqiqotlar olib borilgan. Masalan, olimlar Maripovaning tadqiqot ishida nemis va o'zbek tillarining qiyoslab o'rganilishidan tashqari, ikkala tilning lisoniy madaniy xususiyatlari taqqoslanib, tadqiq etishga murojaat qilingan bo'lib, unda nemis va o'zbek tillaridagi harbiy frazeologizmlarning lingvomadaniy xususiyatlari ko'rib chiqilgan [Maripova, 2023].

Madaniyatlararo munosabatlarda ham evfemizmlarni qo'llashning asosiy vazifasi salbiy bahoga ega bo'lgan so'zni almashtirishdir. Baholash asosida madaniy me'yorlarni qayta konstruksiyalash mumkin. Evfemizmlar ko'p hollarda salbiy mazmun kasb etgan nomaqbul nomni zararsizlantiradi [Romanov, 2021: 6].

Hissiy komponent hissiyotlarning og'zaki ifodasini aks ettiradi, ularning semema tarkibidagi xilma-xilligi "ma'qullayman" yoki "rad etaman" semalari bilan ifodalanadi. Odatda, bu semalar tasvirni madaniy me'yorlar bilan talqin qilish natijasidir [Romanov, 2021: 7].

Paraevphemizm vositalariga murojaat qilish boshqa lingvomadaniy jamoalar vakillari tomonidan paraevfemik hodisalarni noto'g'ri talqin qilishiga yo'l qo'ymaslik uchun milliy madaniy xususiyatlar haqida ma'lum bilimlari talab qiladi [Muxamedyanova, 2005: 12].

MUHOKAMA QILINGAN MASALALAR

Quyida ifodalanadigan evfemizmlarning lisoniy-madaniy ahamiyati haqida gapirar ekanmiz, avvalo evfemizmlarni faqat bir jamiyat, davlat yoki millatga tegishli so'z yoki hodisa emas, balki ularni turli jarayonlar, jamiyatlardagi holat va madaniylik belgisi sifatida o'rganish kerak [Leinfellner, 1971: 10] hamda evfemizmlar o'zida madaniy qadriyatlar, urf-odatlar, diniy-dunyoviy turmush tarzini aks ettiruvchi hodisa [Rustamova, 2018: 14] ekanligini ta'kidlab o'tish lozim.

Masalan, o'zbek xalqida er-xotin (ayniqsa xotin erining) bir-birining ismi bilan chaqirmasligi, uning o'rniga murojaat qilishda olmoshlar yoki farzandlarning birortasining ismi bilan murojaat qilish madaniy turmush tarzining yorqin misoli hisoblanadi, chunki shunday holatlarda tabu holatlar o'rniga evfemizmlar qo'llanadi.

"Qizil bo'lsa bo'lar, **bu kishiga nima**".

Dehqonqul, qizil yomon-da, qizil yomon. Boisi, qizil rang – qon rang! [Tog'ay Murod, 2022: 44]

Etnomadaniyatlar hozirgi global dunyoda bir – birlariga izchil ravishda to'qnash kelmoqda. Shunday ekan, siyosatchilar va tilshunoslar ham ushbu masalaning tadqiq etilishiga e'tibor qaratmoqdalar. Evfemizmlar ham madaniyatlararo muloqotda o'ziga xos rol o'ynashini inkor qilib bo'lmaydi.

Bundan tashqari, evfemistik effektni amalga oshirishda til madaniyatining asosiy tushunchalari, arxetipik g'oyalar va madaniy belgilar o'z aksini topadi. Bu holatlar evfemizmlarni lingvomadaniy tadqiqot obyekti va lingvomadaniy ma'lumotlarning tashuvchisi sifatida ko'rib chiqishga imkon beradi [Rebrova, 2020: 19].

1. ... der Herr hat ihn zur rechten Zeit **abberufen**. H.Pallada. Jeder Stirbt. 538.

Shunday odam **vafot etadi**, nega men bilmayman, o'rtoq rais? [Tog'ay Murod, 2022: 220]

2. ... das heit: **Nichts von dem, was er a, konnte er bei sich behalten**. [AH. Ihsg., S. 143]

Yong'oqni ostida ham uxlar edimi? [Tog'ay Murod, 2022: 232]

O'zbek xalqida qo'pol ma'no ifodalovchi fikrlarni yumshatib yetkazish azaldan mavjud bo'lib, yuqoridagi misollarda keltirilgan evfemizmlarda yaqqol namoyon bo'lmoqda. "Vafot etdi" (o'ldi ma'nosida) va "yong'oq ostida uxlash" (jinni ma'nosida)

qo'llanilib kelmoqda va o'zbek muloqot madaniyatida evfemizmlardan tez – tez foydalanishiga misol bo'la oladi.

Bunga muqobil nemis tilidagi “abberufen” (vafot etmoq) “Nichts von dem, was er aß, konnte er bei sich behalten” (ichi ketish ma'nosida) evfemizlari ham xalqning madaniy muloqot jarayonida qo'pol eshitiluvchi so'zlardan foydalanmaslikka bo'lgan harakatni ifodalaydi.

Bir xalqning paydo bo'lishi, yuksalishi, davrlar osha ularda turli urf-odatlarining paydo bo'lishi uning madaniy hayotini tashkil etadi. Bundan tashqari, bir xalq madaniyati uning erkinligi, muhim voqea-hodisalar, siyosiy va ijtimoiy jarayonlarning boshdan kechirilishi kabi unsurlardan iborat [Rustamova, 2018: 9].

1. “ Unser Sohn ist – **nicht mehr hier**. ... Unser Sohn ist um 13 Uhr 36 plotzlich **von uns gegangen**”. [IB. TuL., S. 182]

Ziyod qani? – deyman. – Ziyod **ketdi**, deyapman-ku, Ziyod **ketdi**... – Ziyod qayoqqa ketdi? – Ziyod... **Norasida ketdi!** [Tog'ay Murod, 2022: 97]

2. Charli kommt zu dem Schluss, dass die **Beine** seines Vaters in den Mtilleimer gewandert sind. Und weil er so ohne weiteres nicht nach den Beinen fragen mochte, fragt er nach den Schuhen, was dann im Endergebnis auf dasselbe hinauskommt. “**Die Schuhe**”, sagt Charlie also, “ wo sind **Papas Schuhe?** ” [L. O. DgF., S. 33]

Voy bolam-ay, **paxta urib ketgan** bolam-ay!... [Tog'ay Murod, 1994: 102]

Nemis xalqining 2-Jahon urushidan qolgan yomon xotiralarini ifodalashda qo'llaniladigan evfemizmlarga misol sifatida urushda qolib ketgan soldatning oyoqlari so'zi o'rniga “Schuhe” (Oyoqlar ma'nosida) qo'llanishi millatning madaniy hayotidan dalolat beradi. Norasida ketgan (voyaga yetmay o'lgan ma'nosida) va paxta urib ketgan (paxtaga sepilgan doridan zaharlanib o'lgan) evfemizmlari o'zbek xalqi tarixi, dini va siyosiy hayotini ko'rsatib beruvchi madaniy xususiyatlarni o'zida aks ettirib, norasida so'zining tojik tilidan o'zbek tiliga uzoq yillar yonma-yon yashab kelganligini ifodalasa, paxta siyosati tufayli sodir bo'ladigan jarayonlar o'zbekistonliklar turmush-tarzini ifodalaydi.

Zamonaviy tilshunoslikda evfemizmlarning ham madaniyatlararo kasb etuvchi xususiyatlarini ochib berishga urinishlar ko'payib bormoqda [Romanov, 2021]. Evfemizmlarni bunday xususiyatlari ekstralingvistika sathida o'rganilishi ayni muddao bo'lib [Glios: 2007], har bir so'zning eng avvalo lug'aviy, keyinchalik siyosat, madaniyat, iqtisod va boshqa sohalaridagi ikkilamchi anglatadigan ma'nolarini to'g'ri anglash muhim masaladir [Bolen, 1994: 25]. Shunday ekan, nemis va o'zbek tilida mavjud evfemizmlarning lisoniy-madaniy xususiyatlarini qiyoslash masalasi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Evfemizm hodisasi nafaqat lingvistik yoki ijtimoiy, balki ruhiy-madaniy hamda etnomadaniy jamiyatlarning o'ziga xos til hodisasi hisoblanadi [Muxamedyanova, 2005: 3].

Nemis tilidagi “Vitamin-B” va o'zbek tilidagi “orqa” so'zlari evfemalashib, tanish-bilish ma'nosini ifodalab kelmoqda. Bunday evfemizmlar xalqlar madaniy -siyosiy hayotini ifodalay oladi.

Hududiy bir-biridan uzoq masofada bo'lgan nemis va o'zbek xalqlari madaniyati nafaqat diniy – axloqiy tomonlama, balki kundalik hayotida va urf – odatlarida ham anchagina tafovutlarga ega. Ikkala xalqda ham qilish mumkin bo'lmagan ish – harakat, aytish mumkin bo'lmagan so'z va so'z birikmalari mavjud bo'lib, ularning o'rnida evfemizmlarning qo'llash vaziyati esa bir xil, ya'ni evfemizmlar ikkala xalq nutqida ham o'xshash maqsadlarda qo'llaniladi.

Gap urf – odatlar haqida borganda, o'zbek xalqining qiblaga oyoq uzatib o'tirmasligi yoki yotmasligi, supurgini tikka qo'ymasligi kabi tabu harakatlarini kuzatamiz [Usmonova, 2015: 124]. Nemis xalqida esa ko'zguni sindirmaslikka harakat qilish, ko'zgu sinishi baxtsizlik keltirishi, 13 raqamining ham baxtsizlik keltirishiga ishonish tufayli mazkur raqamga bog'liq bo'lgan narsa va hodisalardan qochish holatlari mavjud.

Ekstralingvistika nuqtai nazardan evfemizmlarni quyidagi bir-biriga bog'liq bo'lgan uch aspektlarga, **psixologik, sotsial va lingvistik** aspektlarga bo'lib o'rganish mumkin [Glios, 2007: 7]. Evfemizmining psixologik jihatining asosini ong masalasi yordamida kelib chiqqan motivlar tashkil etadi hamda dunyo xalqlari madaniyatlarda tabularning tematik o'zaro bog'liqligi, qo'rquv va uyat tuyg'ulari dastlab yetakchi bo'lgan taqiqning hissiy asoslari bilan bog'liq. Evfemizatsiya jarayonining ijtimoiy tomoni axloqiy me'yorlarning harakatini o'z ichiga oladi. Evfemizatsiya uchun mavjud shartlar orasida jamiyatda qabul qilingan me'yorlar va qadriyatlar tomonidan ta'kidlangan motivlar yetakchi o'rinni egallaydi.

“Wann wird **das Kind erwartet?**” ... In sieben Monaten **wird's erwartet**, nach unserer Berechnung. [Schmieder, 1975: 56-57]

“Kim aytadi seni, **og'iroyoq** boshi bilan hammadan ko'p paxta tergan Bolxin terimchining bolasi deb?” [Tog'ay Murod, 2022: 72]

Ushbu misollardagi “das Kind erwarten” (homilador bo'lmoq ma'nosida) va “og'iroyoq” evfemizmi ham (homilador ma'nosida) qo'llangan bo'lib, nemis va o'zbek xalqlari nutqining madaniy hayotidagi o'ziga xosliklarni ifodalaydi.

Axloqiy va estetik baholar evfemizmi aksiologik jihatining asosini tashkil qiladi. Evfemizmining pragmatik mohiyati, bizningcha, o'zaro to'ldiruvchi harakatdagi hamkorlik [Gries 1985], xushmuomalalik [Brown & Levinson 1987] va teng xavfsizlik [Pavlova 1988] tamoyillarida o'z ifodasini topgan [Muxamedyanova, 2005: 14].

Milliy madaniy xususiyatlarni hisobga olgan holda evfemizatsiya mexanizmini har tomonlama tavsiflash va tushuntirish shaxslararo va xalqaro munosabatlarda tushunmovchilik va nizolarning oldini olishga yordam beradi, turli madaniyatlar vakillari bilan samarali muloqotga erishish yo'llarini aniqlash va rivojlantirishga imkon beradi. Bu holat ayniqsa ko'p millatli davlatlar miqyosida, yoki turli millatlarning bir-birlari bilan turli masalalarda muloqot qilishlarida katta ahamiyat kasb etadi [Muxamedyanova, 2005: 26].

Sie hatten abgesprochen, dass in einem solchen Fall Dieter die alleinige Schuld nehmen sollte, denn Levin wusste, dass er von seinem Großvater endgültig enterbt wurde, wenn er **mit dem Gesetz ins Konflikt kam** [L. N. Apo., S. 61].

Ein Sturm der Entrüstung brach aus. Museumsdirektoren wurden **gefeuert** oder sprangen aus dem Fenster. [H. R. DCS., S. 76].

“**Olibdi, olibdi. Ololmas ekan-u**, Buxoro amiri Muzaffarxon **o'tirib qo'yibdi.**” [Tog'ay Murod, 2022: 18]

“Bilaman! Lekin raykom sekretari buyruq berdi-da! Ekmay ko'ring – erta-indin raykomga ustingizdan **yumaloq xat** tushadi” [Tog'ay Murod, 2022: 121]

Yuqorida keltirilgan misollardagi “mit dem Gesetz ins Konflikt kommen” (qonunni buzmoq ma'nosida) “feuern” (ishdan bushatmoq ma'nosida) va „Olibdi“ (bosib olmoq ma'nosida), “o'tirib qo'yibdi” (sotqinlik qilmoq ma'nosida) “yumaloq xat” (kimningdur ustidan yozish ma'nosida) qo'llangan harbiy va siyosiy evfemizmlar kishilar hayotidagi muloqotda siyosiy jarayonlarni ifodalashda biroz yumshoqlik bilan fikr ifoda etishni anglatadi.

XULOSA

Muxtasar xulosa qilib, shularni alohida ta'kidlash mumkinki, evfemizmlar nemis va o'zbek tillarida alohida holda atroflicha o'rganilgan. Ularning lisoniy – madaniy jihatlarini qiyoslab o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlar sarmahsul emas. Ushbu maqola doirasida qiyoslangan fikr – mulohazalar va misollardan ko'rish mumkinki, nemis va o'zbek xalqlari madaniy hayotidagi salomlashish, tilak bildirish, ismini atab chaqirish va murojaat qilish masalalarida birmuncha farqlar mavjud. Ammo evfemizm qo'llanilishida ikkala xalq ham o'z madaniy turmush – tarzidan kelib chiqqan holda ularga murojaat qilishadi.

Turli mavzulardagi muloqotlarda qo'llanila oladigan evfemizmlar kishilar o'rtasida muloqotdagi salbiylikni yumshatishga xizmat qilarkan, ularni o'z vaqtida to'g'ri maqsadda foydalanish barcha xalqlar uchun etik – estetik masala sanaladi.

Evfemizmlardan foydalanishda diniy omil ham o'z o'rniga ega bo'lib, hozirgi kunda ham xalqlar madaniyatida muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda. Qolaversa, ikki xalq ham tabu harakat va so'zlar masalasida hamfikr va ular o'rnida evfemizmlardan ustalik bilan foydalanadilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Bohlen A. Die sanfte Offensive: Untersuchungen zur Verwendung politischer Euphemismen in britischen und amerikanischen Printmedien bei der Berichterstattung über den Golfkrieg im Spannungsfeld zwischen Verwendung und Missbrauch der Sprache. Univ., Diss., Frankfurt am Main. Lang, 1994, 288 Seiten.

2. Глиос Е.С. Лингвокультурная специфика формирования и функционирования эвфемизмов в современном английском языке (на материале англоязычных Интернет-сайтов). Автореферат. – Белгород, 2007, 23 страниц.

3. Крысин Л.П. Этностереотипы в современном языковом сознании: к постановке проблемы // Философские и лингвокультурологические проблемы толерантности. – Екатеринбург: Издательство Уральского университета, 2003, 458 страниц.

4. Leinfellner E. Der Euphemismus in der politischen Sprache. Berlin: Duncker & Humblot. – 1971, 177 Seiten.

5. Maripova X.M. Harbiy frazeologik birliklarning lingvomadaniy xususiyatlari (Nemis va o'zbek tillari misolida). Avtoreferat. Farg'ona – 2023- 64 bet.

6. Мухамедьянова Г.Н. Эвфемия в общественно-политической лексике (на материале современного немецкого, русского и башкирского языков). Автореферат. – Уфа, 2005, 28 страниц.

7. Реброва Н. Е. Лексикографический статус эвфемизмов как языковых средств репрезентации лингвокультурной информации (на материале английского и немецкого языков. Автореферат. – Ярослав, 2020, 23 страниц.

8. Романов С.И. Лингвокультурологический аспект эвфемизмов. Автореферат. – Тула, 2021, 18 страниц.

9. Рустамова Д. А. Метафорик эвфемизациянинг лингвокультурологик ва социопрагматик аспекти. филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. –Фарғона: 2018, 50 bet.

10. Saydullayeva S. S. Ingliz va o'zbek tillarida nutqiy etiketlarning lingvomadaniy xususiyatlari. Avtoreferat. Samarqand – 2023, 49 bet.

11. Usmanova Sh. Tarjimaning lingvomadaniy aspektlari. O'quv qo'llanma. – T.: ToshDSHI: 2015, 124 bet.
12. Zöllner N. Der Euphemismus im alltäglichen und politischen Sprachgebrauch des Englischen. Frankfurt/ Main: Lang. 1997, 444 Seiten.
13. Fallada, Hans. Jeder Stirbt für sich allein. Büchergilde Gutenberg, 1981. – 559 Seiten.
14. Hacke, Axel. Ich hab's euch immer schon gesagt. Verlag Antje Kunstmann, 1999. – 150 Seiten.
15. Henn, Carsten Sebastian. Die letzte Reifung. Pendo Verlag in der Piper Verlag GmbH, München 2011. – 172 Seiten.
16. Noll, Ingrid. Die Apothekerin. Diogenes Verlag AG Zurich – 1994. -249 Seiten.
17. Ossowski, Leonie. Die große Flatter. Fischer Taschenbuchverlag, 1980. – 188 Seiten.
18. O'tkir Hoshimov. Tushda kechgan umrlar. G'ofur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. Toshkent – 2002. – 142 bet.
19. Rosendorfer, Herbert. Der China-Schmitt. Verlag Kiepenheuer & Witsch: Köln – 1999. – 96 Seiten.
20. Said Ahmad. Ufq. Trilogiya. G'ofur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. Toshkent – 1976. – 686 bet.
21. Schmieder M. Nachtfrost. 1.Auflage. Verlag Das Neue – Berlin – 1975. – 191 Seiten.
22. Tog'ay Murod. Otamdan qolgan dalalar. ZUKKO KITOBXON nashriyot-matbaa uyi, Toshkent – 2022. – 352 bet.